



ANALYSIS OF SOCIETAL TRANSFORMATION BASED ON THE VIEWS OF DANIEL BELL AND ALVIN TOFFLER

Zafar Botirov

*Researcher at Samarkand State Pedagogical Institute
Samarkand, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Postindustrial society, Third Wave, information society, digital society, social transformation, knowledge economy, technological determinism, social evolution, information technologies, civilizational approach.

Received: 19.04.26

Accepted: 20.04.26

Published: 21.04.26

Abstract: This article analyzes the formation of postindustrial and information society theories and the conceptual foundations of societal transformation based on the views of Daniel Bell and Alvin Toffler. Bell's concept of postindustrial society highlights the predominance of knowledge and the service sector, the strategic role of theoretical knowledge, and the impact of technological progress on social structures. Toffler's "Third Wave" theory examines the civilizational changes following agrarian and industrial stages, focusing on the emergence of a new socio-cultural model due to the penetration of information and communication technologies into social life.

DANIEL BELL VA ALVIN TOFFLER QARASHLARI ASOSIDA JAMIYAT TRANSFORMATSIYASI TAHLILI

Zafar Botirov

*Samarqand davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi
Samarqand, O'zbekistan*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Postindustrial jamiyat, uchinchi to'liqin, axborotlashgan jamiyat, raqamli jamiyat, jamiyat transformatsiyasi, bilim iqtisodiyoti, texnologik determinizm, ijtimoiy evolyutsiya, informatsion texnologiyalar, sivilizatsion yondashuv.

Annotatsiya: Mazkur maqolada postindustrial va informatsion jamiyat nazariyalarining shakllanishi hamda jamiyat transformatsiyasining konseptual asoslari Daniel Bell va Alvin Toffler qarashlari asosida tahlil qilinadi. Bell tomonidan ilgari surilgan postindustrial jamiyat konsepsiyasida bilim va xizmatlar sektorining ustuvorligi, nazariy

bilimning strategik resursga aylanishi hamda texnologik taraqqiyotning ijtimoiy tuzilmalarga ta'siri ochib beriladi. To'fflarning "uchinchi to'lqin" nazariyasida esa agrar va industrial bosqichlardan keyingi sivilizatsion o'zgarishlar, axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining jamiyat hayotiga kirib kelishi natijasida yuzaga kelgan yangi ijtimoiy-madaniy model tahlil qilinadi.

АНАЛИЗ ТРАНСФОРМАЦИИ ОБЩЕСТВА НА ОСНОВЕ ВЗГЛЯДОВ ДЭНИЕЛА БЕЛЛА И ЭЛВИНА ТОФФЛЕРА

Зафар Ботиров

Исследователь

Самаркандского государственного педагогического института

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

<p>Ключевые слова: Постиндустриальное общество, Третья волна, информационное общество, цифровое общество, трансформация общества, экономика знаний, технологический детерминизм, социальная эволюция, информационные технологии, цивилизационный подход.</p>	<p>Аннотация: В данной статье анализируется формирование теорий постиндустриального и информационного общества, а также концептуальные основы трансформации общества на основе взглядов Дэниела Белла и Элвина Тоффлера. Концепция постиндустриального общества Белла подчеркивает преобладание знаний и сферы услуг, стратегическую роль теоретических знаний и влияние технологического прогресса на социальные структуры. Теория «Третьей волны» Тоффлера рассматривает цивилизационные изменения, следующие за аграрным и индустриальными этапами, с акцентом на появление новой социокультурной модели в результате внедрения информационно-коммуникационных технологий в общественную жизнь.</p>
---	---

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlangan mamlakatlarda jamiyat taraqqiyotining yo'nalishi tubdan o'zgardi. Industrial ishlab chiqarishga tayangan iqtisodiy model asta-sekin xizmat ko'rsatish, bilim va axborotga asoslangan tizim bilan almashdi. 1970-yillarga kelib AQShda xizmat ko'rsatish sohasi bandlikning yarmidan ko'prog'ini tashkil etdi, 1980-yillarga borib esa bu ko'rsatkich 70 foizga yaqinlashdi. Bu jarayon jamiyat tuzilmasi, siyosiy

boshqaruv va madaniy qadriyatlar tizimida chuqur transformatsiyani boshlab berdi. Mazkur o'zgarishlarni nazariy jihatdan asoslab bergan olimlardan biri — Daniel Bell, ikkinchisi esa — Alvin Tofflerdir. Bell postindustrial jamiyat konsepsiyasini ishlab chiqib, bilim va xizmatlar sektorining ustuvorligini asoslab berdi. Toffler esa “uchinchi to'liq” nazariyasi orqali insoniyat tarixini agrar, industrial va axborotlashgan bosqichlarga ajratdi. Ushbu maqolada jamiyat transformatsiyasi jarayonlari mazkur ikki mutafakkir qarashlari asosida kompleks tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. “Baxtli xususiylik — bu sermahsul konsepsiyadir”[14]. Bugungi kunda, ayniqsa, tarixiy qamrovi keng bo'lgan va o'zining o'zgachaligi bilan ajralib turadigan dabdabali nazariyani ilgari surish oson. Ammo bunday nazariyalar amaliy voqelik bilan sinovdan o'tgach, ko'pincha karikaturaga aylanadi. Masalan, James Burnhamning “boshqaruvchilar inqilobi” nazariyasi, C. Wright Millsning “hokimiyat elitasi” konsepsiyasi yoki W. W. Rostowning iqtisodiy o'sish bosqichlari haqidagi qarashlari shunday misollardandir.

Daniel Bell 1973-yilda nashr etilgan “The Coming of Post-Industrial Society” asarida jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichi — postindustrial jamiyat nazariy jihatdan asoslab berilgan. Bellning fikricha, postindustrial jamiyat industrial davrga xos sanoat va ishlab chiqarish markazli tuzilmalardan keskin farq qiladi. U nafaqat iqtisodiy faoliyatning tarkibini o'zgartiradi, balki ijtimoiy rol, bilim, siyosiy hokimiyat va madaniyatning o'zaro bog'liqligini ham qayta shakllantiradi.

Bell jamiyatni analitik jihatdan uch asosiy qismga ajratadi:

1. Ijtimoiy tuzilma – iqtisodiyot, texnologiya va kasbiy tizimlarni o'z ichiga oladi. Bu qism jamiyatning amaliy faoliyatini, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sektorlarini, shuningdek, ishchi kuchi taqsimotini o'rganadi. Postindustrial jamiyatda ijtimoiy tuzilma o'zgaradi: iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish va bilimga asoslangan sektorlar ustunlik qilishi, texnologiya va ilmiy-texnik taraqqiyot mehnat unumdorligi va ijtimoiy tuzilmani belgilashi, kasbiy tizim esa professional va texnik mutaxassislar sinfini kuchaytirishi bilan xarakterlanadi.

2. Siyosiy tizim (polity) – hokimiyat taqsimoti, qaror qabul qilish va boshqaruv mexanizmlarini o'rganadi. Bellning ta'kidlashicha, ijtimoiy tuzilmadagi bilim va texnologiyaga asoslangan o'zgarishlar siyosiy tizim uchun yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Texnologik bilimning ustuvorligi siyosatchilar va texnokratlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni murakkablashtiradi va hokimiyat strukturasi yangi balanslarni shakllantiradi.

3. Madaniyat – ifodaviy ramzlar, ma'nolar, qadriyatlar va shaxsiy identifikatsiya sohasini o'z ichiga oladi. Postindustrial jamiyatda madaniyat shaxsning o'zini ro'yobga chiqarish istagi, kreativlik va intellektual faoliyat bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Bellning fikricha, ijtimoiy tuzilma va madaniyat o'rtasidagi ziddiyat kuchayadi, chunki bilimga asoslangan ish faoliyati va yuqori ixtisoslashuv an'anaviy madaniy me'yorlar bilan to'qnashadi.

D.Bell postindustrial jamiyatni nafaqat iqtisodiy va texnologik transformatsiya, balki siyosiy va madaniy tizimlar bilan uzviy bog'liq kompleks jarayon sifatida tasvirlaydi. U jamiyatning uch o'lchovi — ijtimoiy tuzilma, siyosiy tizim va madaniyat — o'zaro bog'liq bo'lib, postindustrial transformatsiyaning asosiy ramkasi ekanini ko'rsatadi.

Daniel Bellning fikricha, har bir jamiyat sohasi o'zining aksial tamoyili bilan boshqariladi — ya'ni har bir soha o'z funksiyasini amalga oshirishda markaziy printsipga tayangan holda rivojlanadi.

Ijtimoiy tuzilmaning aksial tamoyili — iqtisodiy lashtirish. Bu prinsip resurslarni eng samarali tarzda taqsimlash, optimallashtirish va maksimal natijaga erishish jarayonlarini belgilaydi.

Siyosiy tizim (polity)ning aksial tamoyili — ishtirok, ya'ni fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonlarida ishtiroki, ba'zan yuqoridan safarbar qilinishi, ba'zan esa quyi qatlamlardan talab qilinishi.

Madaniyatning aksial tamoyili — shaxsni ro'yobga chiqarish, o'zini rivojlantirish va ijodiy ifoda etish istagi.

Bugungi zamonda ushbu uch soha o'rtasidagi uzviylik sekin-asta susayib bormoqda va ularning differensiallashuvi kuchaymoqda. Bu esa ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlarda o'zaro muvozanatni murakkablashtiradi. D.Bell postindustrial jamiyatni besh asosiy o'lchov orqali tavsiflaydi:

1. Mahsulot ishlab chiqarishdan xizmat ko'rsatish iqtisodiyotiga o'tish — ishlab chiqarish sektori o'rnini xizmatlar, ta'lim, sog'liqni saqlash va ilmiy tadqiqot egallaydi.

2. Professional va texnik mutaxassislar sinfining ustuvorligi — ishchi kuchining asosiy qismi yuqori malakali kadrlar va texnik mutaxassislar tarkibidan iborat bo'ladi.

3. Nazariy bilimning markaziy o'rin egallashi — bilim va ilm-fan jamiyatning innovatsion rivojlanishida va siyosiy qarorlar qabul qilishda asosiy manba bo'ladi.

4. Texnologik rivojlanishni nazorat qilish — texnologik taraqqiyotni boshqarish, baholash va rejalashtirish jamiyatning kelajak strategiyasida markaziy ahamiyatga ega bo'ladi.

5. “Intellectual texnologiya”ning shakllanishi — qaror qabul qilish jarayonlari ilmiy, texnik va kognitiv bilimga asoslangan yangi metod va vositalar orqali amalga oshiriladi.

D.Bellning yondashuvi postindustrial jamiyatni nafaqat iqtisodiy yoki texnologik o‘zgarishlar, balki siyosiy va madaniy tizimlar bilan uzviy bog‘liq murakkab jarayon sifatida tushuntiradi. Ayniqsa, nazariy bilim innovatsiyalar va siyosiy qarorlar qabul qilishning asosiy manbaiga aylanishi Bell nazariyasining markaziy g‘oyasidir. Uning ta’kidlashicha, universitetlar va ilmiy markazlar yangi jamiyatning asosiy institutlariga aylanadi.

Postindustrial jamiyatning eng muhim va dastlabki belgilardan biri — xizmat ko‘rsatish sektorining ustunligi hisoblanadi. Bu jarayon iqtisodiyotning strukturaviy o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lib, uni dastlab Colin Clark o‘zining tahlillari orqali aniqlagan. Clark iqtisodiyotni uch asosiy sektorga ajratgan:

1. Birlamchi sektor — qishloq xo‘jaligi, baliqchilik, o‘rmon xo‘jaligi va konchilik;
2. Ikkilamchi sektor — sanoat va ishlab chiqarish;
3. Uchlamchi sektor — xizmat ko‘rsatish sohalari: savdo, moliya, transport, sog‘liqni saqlash, ta’lim, ilmiy tadqiqotlar va davlat boshqaruvi.

Sanoatlashuv jarayonida ishchi kuchining katta qismi birlamchi sektordan ikkilamchi sektorga, ya’ni sanoatga o‘tadi. Keyinchalik milliy daromadlar oshgani sari xizmatlar sektori tobora kengayadi va ishchi kuchidagi ulushi ortadi.

XX asr oxiriga kelib Qo‘shma Shtatlar dunyodagi birinchi to‘liq xizmat iqtisodiyotiga aylangan mamlakatga aylandi. Agar Afrika va Osiyoda ishchi kuchining 70 foizdan ortig‘i agrar sohalarda band bo‘lsa, AQShda xizmatlar sektori yalpi milliy mahsulotning yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich postindustrial jamiyatning empirik ifodasi bo‘lib, ijtimoiy tuzilma va iqtisodiy faoliyatning tubdan o‘zgarishini namoyon etadi.

Xizmatlar sektori ustunligining rivojlanishi postindustrial jamiyatning asosiy iqtisodiy belgisi sifatida jamiyat transformatsiyasini anglashda muhim indikator vazifasini bajaradi. Alvin Toffler 1980-yilda nashr etilgan “The Third Wave” asarida jamiyat taraqqiyotini uch bosqichga ajratadi:

- Birinchi to‘lqin — agrar jamiyat;
- Ikkinchi to‘lqin — industrial jamiyat;
- Uchinchi to‘lqin — axborotlashgan jamiyat.

Alvin Tofflarning fikricha, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab mikroelektronika, kompyuterlashtirish va telekommunikatsiya sohasidagi inqilobiy o‘zgarishlar insoniyatni yangi

sivilizatsion bosqichga olib chiqdi. Ushbu jarayonning muhim bosqichlari sifatida 1971-yilda mikroprotssessorning yaratilishi va 1990-yillarda internetning keng ommalashuvi xizmat qiladi.

A.Toffler industrial jamiyatning ommaviy ishlab chiqarish va standartlashtirish tamoyillarini yangi davrda individuallashtirish, moslashuvchanlik va axborot almashinuvi egallashini ta'kidlaydi. U bu jarayonni "demassifikatsiya" deb ataydi — ya'ni, mass-market va ommaviy standartlashtirish o'rini, individual ehtiyoj va shaxsiylashtirilgan yondashuv egallaydi. Bunday transformatsiya jamiyatning turmush tarzi, mehnat bozori va ijtimoiy kommunikatsiyasini tubdan o'zgartiradi. Axborot va bilimga asoslangan yangi iqtisodiyot, shaxsiy moslashuvchanlik va innovatsion faoliyatning ustunligi, A.Toffler nazariyasida postindustrial jamiyatning markaziy xususiyatlari sifatida ko'rsatildi. Tofflarning "uchinchi to'lqin" konsepsiyasi postindustrial jamiyatning texnologik, ijtimoiy va madaniy transformatsiyasini tushuntirishda Bellning nazariy asoslarini yanada boyitadi.

Texnologik determinizm – bu ijtimoiy nazariya bo'lib, unda texnologik rivojlanish jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy tuzilishiga asosiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida qaraladi. Bell va Tofflarning jamiyat transformatsiyasiga oid nazariyalarida texnologiya asosiy drayver sifatida namoyon bo'ladi, ammo har ikkisi texnologiyaning roli va ijtimoiy jarayonlarga ta'sirini turlicha yoritadi. Daniel Bell postindustrial jamiyat konsepsiyasida texnologiyani ijtimoiy transformatsiyaning markaziy vositasi sifatida ko'radi. Bellning fikricha:

Ijtimoiy tuzilma (iqtisodiyot, texnologiya, kasbiy tizim) texnologik bilim va xizmatlar sektori ustuvorligi bilan belgilanadi.

Texnologik rivojlanish ijtimoiy rollarni segmentatsiyalashga, ilmiy va professional mutaxassislar sinfining kuchayishiga olib keladi.

Siyosiy tizim va madaniyat texnologiyaga moslashadi: siyosiy qarorlar bilim va texnologiyaga asoslangan holda shakllanadi, madaniyat esa shaxsiy kreativlik va innovatsiya orqali o'zgaradi.

D.Bell nuqtai nazarida texnologiya jamiyatning strukturaviy transformatsiyasini belgilovchi vosita bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarning o'zgarishini asoslab beradi.

Alvin Toffler "uchinchi to'lqin" konsepsiyasida texnologiyani sivilizatsion o'zgarishlarni jadallashtiruvchi omil sifatida ko'radi:

Mikroelektronika, kompyuterlashtirish va telekommunikatsiya sohalaridagi inqilobiy o'zgarishlar industrial jamiyat tamoyillarini (ommaviy ishlab chiqarish va standartlashtirish) individuallashtirish, moslashuvchanlik va axborot almashinuvi bilan almashtirdi.

Toffler texnologiyani ijtimoiy-madaniy transformatsiyaning katalizatori sifatida tasvirlaydi: yangi ish shakllari, o'quv metodlari va kommunikatsiya modelini yaratadi.

“Demassifikatsiya” jarayoni texnologik determinizmning amaliy ifodasi bo'lib, jamiyatning strukturaviy va madaniy qatlamlarini texnologik imkoniyatlar bilan moslashtiradi.

D.Bell va A.Toffler nazariyalari bir-birini to'ldiradi: Bell strukturaviy-iqtisodiy va kognitiv transformatsiyani, Toffler esa sivilizatsion va madaniy dinamikani yoritadi. Har ikkala nazariya ham texnologiyani ijtimoiy evolyutsiyaning markaziy omili sifatida ko'rsatadi va zamonaviy postindustrial hamda raqamli jamiyatni tushunishda metodologik poydevor beradi.

Texnologik determinizm Bell va Toffler qarashlari asosida jamiyat transformatsiyasini tushuntirishda iqtisodiy, siyosiy, madaniy va kognitiv o'zgarishlarni birlashtiruvchi konseptual vosita sifatida xizmat qiladi.

D.Bell postindustrial jamiyatda ijtimoiy tuzilmaning o'zgarishi siyosiy tizim uchun yangi muammolar tug'dirishini qayd etadi. Texnik bilimning ustuvorligi olimlar, muhandislar va texнокratlarning rolini oshiradi. Natijada siyosiy hokimiyat bilan ilmiy-texnik elita o'rtasida murakkab munosabat shakllanadi.

Toffler ham yangi davrda boshqaruv shakllarining o'zgarishini ta'kidlaydi. U markazlashgan byurokratik tuzilmalar o'rnini moslashuvchan, tarmoqlashgan boshqaruv tizimlari egallashini bashorat qiladi. Bugungi raqamli platformalar va elektron hukumat tizimlari ushbu jarayonning amaliy ifodasidir.

Postindustrial jamiyatda madaniyatning asosiy tamoyili — o'zini ro'yobga chiqarish istagi kuchayadi. Nazariy bilimning ustuvorligi va intellektual mehnatning ixtisoslashuvi shaxsiy identiklik masalasini murakkablashtiradi. Bell madaniyat va ijtimoiy tuzilma o'rtasidagi ziddiyat kuchayishini qayd etadi.

Toffler esa yangi jamiyatda turmush tarzi xilma-xillashishini, masofaviy mehnat, individual ta'lim va moslashuvchan oilaviy modellarning paydo bo'lishini ta'kidlaydi. Bu esa madaniy plyuralizmni kuchaytiradi.

Xulosa. Daniel Bell va Alvin Toffler qarashlari jamiyat transformatsiyasini tushuntirishda o'zaro uyg'un va bir-birini to'ldiruvchi nazariy asos yaratadi. Bell strukturaviy-iqtisodiy o'zgarishlarni chuqur tahlil qilgan bo'lsa, Toffler sivilizatsion miqyosdagi dinamikani yoritadi. Har ikkala nazariya ham zamonaviy raqamli jamiyatning shakllanishini anglashda muhim metodologik poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bell D. The Coming of Post-Industrial Society: A Venture in Social Forecasting. New York: Basic Books, 1973.
2. U.S. Bureau of Labor Statistics ma’lumotlari (1970-yillar bandlik statistikasi).
3. OECD ilmiy-tadqiqot xarajatlari bo‘yicha hisobotlar (1960–1980-yillar).
4. Toffler A. The Third Wave. New York: William Morrow, 1980.
5. Berners-Lee T. World Wide Web texnologiyasining joriy etilishi, 1991-yil.